

Qadimgi yunonistonda o'g'il bolalarni tarbiyalash

Anvar Eshnazarov

Anvarjon14091995@gmail.com

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya: Maqolada Qadimgi Yunoniston hududiagi shahar-davlatlarda o'g'il bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayoni haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, jismoniy mashqlar o'smir yoshdagi bolalar uchun juda ham muhim ekanligi qayd etib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Sparta, Afina, pedagog, ta'lim, tarbiya, o'smir

Raising boys in ancient Greece

Anvar Eshnazarov

Anvarjon14091995@gmail.com

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after
Alisher Navoi

Abstract: The article provides information about the process of educating boys in the city-states of Ancient Greece. It has also been noted that physical exercise is very important for teenage children.

Keywords: Sparta, Athens, pedagogue, education, training, teenager

Qadimgi Yunonistonda o'g'il bolalarni sog'lom va baquvvat bo'lib kamol topishiga alohida e'tibor qaratishgan. Ularni yoshlikdan jismoniy tarbiya va sportga muhabbat ruhida tarbiyalashgan. Bolalar tur xil jismoniy mashqlar bajarib chiniqishga o'rgatilgan. Bunda ular sportning besh kurash: ya'ni yugurish, sakrash, kurash, disk va nayza uloqtirishni o'rganishgan. O'g'il bolalarning mushaklari kuchli bo'lishi, bu kelajakda yunon shaharlarini dushman hujumlaridan himoya qilishda muhim rol o'ynagan. Yunonlarning shu davrdagi pedagogik dunyo qarashiga ko'ra, bolaning jismoniy rivojlanishi ularning katta yoshga yetganlarida qat'iyatli, jasoratli, intizomli, o'ziga ishonuvchan, irodali bo'lishlarida muhim ahamiyatga ega. Jismoniy tarbiya bilan muntazam shug'ullanish aniq va tabiiy fanlarni o'zlashtirishga ham, intellektni oshirishga ham, yuksak axloqiy tarbiya hosil qilishga ham yordam beradi. Harakatda bo'lib turgan organizmda qon aylanish tizimi yaxshilanadi, moddalar almashinuvi barqaror bo'ladi. Bu narsalar miyada yangi fikr va g'oyalarning tug'ilishiga ham asos bo'lib xizmat qiladi. Bejizga "Sog' tanda - sog'lom aql" deyilmagan.

Shuningdek, sport qad-qomatning to'g'ri o'sishi, muskullarning kuchli bo'lishi, bo'g'im va tizzalarda o'g'riqni olishi, immunitetning ko'tarilishiga ham ko'maklashadi. Nafas yo'llarini yaxshilanishi va ovqatni parchalash ham harakat hisobidan yuzaga keladi. Kayfiyatning yuqoriligini ta'minlaydi. Baxt gormonlarini ishlab chiqarishda va stressdan chiqishda o'rni beqiyosdir. Jismoniy mashqlarni bajarish erta qarishning ham oldini oladi. Xuddi shu narsaga ishora qilib qadimgi ellinlar "Kuchli bo'lishni istasang yugur, aqlli bo'lishni istasang yugur, chiroyli bo'lishni istasang yugur" deyishgan.

Qadimgi Yunoniston, jumladan Afina, Sparta, Delfiya, Frakiyada bolaga yoshlikdan kuchli va chidamli bo'lish o'rgatilgan. O'g'il bolalarning jismoniy yetukligiga jiddiy ahamiyat berilgan. Mashqlar bajarilayotganda bolaning yoshi, bo'yi va kuchi ham inobatga olingan. Yunonlar Bolalikdan turli xil o'yinlar, sport musobaqalarida ishtirok etishgan. Yoshlari ulg'aygach ular Olimp tog'ida o'tkaziladigan butun yunon sport musobaqalari - hozirgi Olimpiadada qatnashishgan.

Spartaliklarning bolalari 7 yoshgacha uyda tarbiyalangan, so'ng «Agella» deb atalgan maktabda o'qishgan. O'qish muddati 7 -18 yoshgacha davom etgan. Shu maktabda hukumatning taniqli kishisi "pedanom" butun tarbiyaviy ishga rahbarlik qilgan. Tarbiya jarayonida bu maktabda o'smirlarga alohida e'tibor berishgan. Ularni jismonan sog'lom bo'lishi uchun turli mashqlar bilan chiniqtirishgan. Masalan: sovuqqa, ochlikka va chanqoqlikka chidash, og'rikka bardosh berishga o'rgatib borishgan. Ta'lim jarayonining asosiy qismini xarbiy gimnastik mashqlar: yugurish sakrash madaniyat nayza otish qisqa so'zlashuv qo'l bilan jang qilish musiqa darsi.

Spartada 18 -20 yoshga yetgandan keyin maxsus "Efeblar" guruhda bolalarga harbiy ta'lim ular harbiy xizmatni o'taganlar. Spartada Efeblar qadimgi Yunonistonda balog'atga yetgan o'spirinlarga alohida e'tibor qaratiishgan. Masalan: Vatan dushmanlari bilan kurashda ota-bobolar ko'rsatgan mardligi va jasurligi, qaxramonlar haqida suxbatlar uyushtirishar, shuningdek bolalarni savol-javob jarayonida aniq, qisqa va lo'nda qilib javob berishga o'rgatib borilar edi. "Kreptiyalar" da ya'ni kechalari qullarni tutish mashqlarida qatnashtirilar edi. Afinada esa xayot, tartib, intizom, maktab tizimi, undagi ta'lim-tarbiya Spartanikidan butunlay farq qilar edi. Afinadagi iqtisodiy hayot Spartadagi singari cheklanib qo'yilgan emas edi. Qullar xususiy mulk hisoblanar edi. Bu yerda tibbiyot ilmi, matematika, tarix taraqqiy etgan edi.¹

Haykaltaroshlik, san'at, me'morchilik Afinada "grammatist", "polestra", "efeb", "gimnasiy", "demos" kabi maktab turlari mavjud edi. Bolalar 7 yoshgacha oilada tarbiyalanganlar. 7 yoshdan o'g'il bolalar maktabga borishgan. Afinada bolalar dastlab 7 yoshdan 13 -14 yoshgacha "grammatist", (savod o'qitish ma'nosida), "kifarist" (grekcha musiqa o'qituvchisi ma'nosida) maktablarda tahsil olganlar. Bu maktablar

¹ Hoshimov K. "Pedagogika tarixi" T."O'zbekiston" 1997 yil.

xususiy bo‘lib, haq to‘lanar edi, Shuning uchun fuqarolarning bolalari bu maktablarda ta‘lim ololmas edilar. O‘g‘il bolalar 13 - 14 yoshga yetganlaridan keyin «Polestra» kurash maktabi deb atalgan o‘quv yurtiga o‘tar edilar. Bu o‘quv yurtida ular 23 yil davomida jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanar edilar. Masalan: sakrash, yugurish, kurash tushish, disk va nayza irgitish mashqlari va suvda suzish o‘rgatilgan.

Spartadagi kabi Afina maktablarida ham o‘quvchilar bilan siyosiy va axloqiy masalalarda suhbatlar o‘tkazilgan, o‘qish tekin bo‘lgan. “Gimnasiy” maktabida polestra maktabini tugatgan badavlat oila farzadlari tahsil olganlar. Ularga falsafa, siyosat, adabiyot fanlari o‘rgatilgan. Bu maktabni tugatgan yoshlar davlatni boshqarishda qatnashishlari mumkin bo‘lgan. “Efeb” maktabida 18 -20 yoshga qadar tahsil olganlar. Bu maktabda harbiy xizmatga tayyorlanar va o‘zlarini siyosiy bilimlarini oshirishni davom ettirar edilar. Bu maktabda istehkomlar qurishni, harbiy aslahalarni ishlata bilishni, garnizonlarda xizmat qilishni, dengizchilik o‘rgatilgan. Bundan tashqari “Demos” (xalq) maktabi ham mavjud edi. Aholining ko‘pchiligi bolalarini maktablarda o‘qita olmaganligi sababli ularga kasb - hunar o‘rgatar edilar.²

Ayrim xat savodli kishilar bolalariga o‘zlari xat savod o‘rgatganlar. Bu usul ham davlat tomonidan qonunlashtirib qo‘yilar edi. Suqrot er. av. (469 -399 y)da yashab ijod etgan. Suqrotning fikricha tarbiyadan kutilgan maqsad, buyumlar tabiatini o‘rganish bo‘lmay, balki kishining bilim olishi, axloqni kamol toptirishi bo‘lmog‘i lozim edi. Suqrot faylasuf bo‘lishi bilan birga ajoyib notiq ham edi. U keng maydonlarda so‘zga chiqib, axloqqa doir masalalar yuzasidan suhbatlar o‘tkazar, tinglovchilarni savol-javob yo‘li bilan haqiqatni topishlariga undar edi. U tarbiyada axloqiy, estetik, jismoniy tarbiya mezonini ishlab chiqdi. Lekin Suqrotning axloqiy qarashlarida tengsizlikni yaqqol sezish mumkin. Uning fikricha axloq faqat imtiyozli «mumtoz» largagina xos, “mumtoz” kishilar haqiqiy axloqning yagona egalari bo‘lganliklari uchun hokimiyat ham ularning qo‘llarida bo‘lmog‘i kerak deydi.

Platon er. avv. (424 -347) yillarda yashagan. Uning fikricha ideal aristokratik davlat 3 xil ijtimoiy guruhlardan iborat bo‘lishi, ya’ni bular: faylasuflar, jangchilar, hunarmandlar va dehqonlar guruhidan iborat bo‘lishi lozim. Tarbiya - deydi Platon davlat tomonidan tashkil etilmog‘i, hukmron guruhlarning manfaatlarini ko‘zlamog‘i lozim. Platonning fikricha bolalar 3 yoshdan boshlab 6 yoshgacha davlat tomonidan tayinlab qo‘yilgan tarbiyachilar raxbarligida tarbiyalanishini tavsiya etadi. 7 yoshdan 12 yoshgacha esa davlat maktablarida taxsil olib, ularga o‘qish, yozish, xisob, musiqa va ashula darslari o‘rgatiladi. 12 -16 yoshgacha bo‘lgan bolalar jismoniy mashqlarni o‘rgatadigan «Polestra» maktabida, 18 yoshga qadar dunyoviy fanlarni o‘qitadigan maktablarda, 18 -20 yoshgacha esa “Efeb” maktablarida taxsil olib harbiy ta‘lim o‘rgatiladi. Uning fikricha, “Efeb” maktabini tugatgandan so‘ng qobiliyatli va iqtidori bo‘lgan yigitlar falsafa ilmini o‘rgatadigan uchinchi bosqich oliy ta‘limni o‘taydilar.

² Hoshimov K. , Nishonova S. , Inomova M. , Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T. O‘qituvchi, 1996.

Platon tarbiya tizimida asosan jismoniy mehnatga nafratni singdirish, quldorlar manfaatini himoya qilish maqsadi nazarda tutiladi. Uning pedagogika tarixida tutgan o'rnini shundaki, u dastlab maktabgacha tarbiya to'g'risidagi g'oyani ilgari surib, yoshlarga ta'lim berishning izchillik tizimini ishlab chiqqanligidadir.³

Arastu er.avv. (384-322) yillarda yashagan. Arastu uch xil tarbiya ya'ni: jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiya aqidalarni ishlab chiqib, tarbiyaning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Arastu birinchi bo'lib yoshni davrlarga bo'lish mezonini ishlab chiqishga uringan olimdir. U insonni yoshlik yillarini 3 davrga, ya'ni: 0-7 yoshgacha; 7-14 yoshgacha; 14-21 yoshgacha bo'lgan davrlarga bo'ladi. Uning fikricha, bolalar 7 yoshgacha oilada tarbiyalanadi, go'dakning yoshiga mos keladigan ovqatlar bilan boqish, turli xarakterli mashklar orqali uni chiniqtirib borish kerak deydi.

O'g'il bolalar 7 yoshdan boshlab davlat maktablarida o'qishlari lozim deb uqtiradi. U jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiya birbiri bilan uzviy bog'langan deb xisoblaydi. U bolalarga boshlang'ich ta'lim berish vaqtida jismoniy mashqlar qilish bilan bir qatorda o'qish, yozish, grammatika, rasm va musiqani o'rgatish kerak deb ta'kidlaydi. o'smirlar maktabda jiddiy ma'lumot olishlari, ular: adabiyot, tarix, falsafa, matematika, astronomiya va boshqa fanlarni o'rganishlari lozim deydi. Arastu xotin-qizlarning tarbiyasi erkaklarning tarbiyasiga o'xshashi mumkin emas, chunki xotin-qizlarning tabiati erkaklarning tabiatidan farq qiladi deb xisoblaydi. Arastu Platondan farq qilib, bola tarbiyasida oila tarbiyadan chetlashtirilmaydi.⁴

Axloqiy tarbiya berish asosan oila zimmasida ekanligini uqtiradi. Demokrit er, av, (460-370) yillarda yashagan. U tarbiyani tabiatga muvofiqlashtirish masalasini birinchi bo'lib ilgari surgan olim bo'lib, u "Tabiat bilan tarbiya bir-biriga o'xshaydi", -deydi. "Ta'lim mehnat asosidagina go'zal narsalarni xosil qiladi" deb tarbiya ishida mehnatning roli beqiyos ekanligini ta'kidlaydi. Uning xizmati shundaki, u inson kamolatida mehnat tarbiyasining roliga katta e'tibor berib, yoshlarga mehnat tarbiyasi berishning usullarini ko'rsatib berganligidadir.

Xulosa

Xulosa o'rnida, ayta olamizki, bog'cha va maktab yoshidagi bolalarni sportga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularni kelajakda har tomonlama sog'lom, yetuk va komil bo'lishlariga olib keladi. Olamning moddiy-ma'naviy tuzilishi, qurilishi, uning rivoji, insonning moddiy - ma'naviy yashash sharoiti, imkoniyatlari, uning aqliy, axloqiy, jismoniy holati bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun tabiatning inson yashashi, mavjudligi, baxtiyorligini ta'minlash imkoniyatlari, uning aqliy-axloqiy, jismoniy rivoji, o'sishiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Vatan kelajagini esa biz mana shunday

³ Ataeva N. , Rasulova F. , Hasanov S. Umumiy pedagogika (Pedagogika tarixi). – T. : "Fan va texnologiya", 2011.

⁴ Pedagogika tarixidan xrestomatiya //Ped. oliy bilimgoahlari talabalari uchun o'quv qo'll. Tuzuvchi-muallif: O. Hasanboeva. – T. : O'qituvchi, 1992.

barkamol avlodlarga bemaolol ishonib topshira olamiz. Unutmang, “harakat barcha dorining o‘rnini bosa oladi, lekin hech bir dori harakatning o‘rnini bosa olmaydi”.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. K.Xoshimov “Pedagogika tarixi” T. “O‘zbekiston” 1997 yil.
2. Hoshimov K. Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T. O‘qituvchi, 1996.
3. Ataeva N., Rasulova F., Hasanov S. Umumiy pedagogika (Pedagogika tarixi). – T. : “Fan va texnologiya”, 2011.
4. Pedagogika tarixidan xrestomatiya //Ped. oliy bilimgozlari talabalari uchun o‘quv qo‘ll. Tuzuvchi-muallif: O. Hasanboeva. – T.: O‘qituvchi, 1992.
5. Хайдаров, С. А. (2023). Тарих дарсларида санъат асарларидан фойдаланишнинг усуллари. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1/2), 92-96.
6. Аслонов И. (2022) “Бобурнома” бадиий – психологик тасвир муаммоси объекти сифатида. *O‘zMU xabarлари. Toshkent – 2022. №1/5.*
7. Aslonov Ilhom Nizomovich. (2022) The Problem of Artistic - Psychological Image in Boburnoma. *Eurasian Scientific Herald. Volume 7| April, 2022. ISSN: 2795-7365.*
8. Aslonov Ilhom Nizomovich. (2022) Appearance of Zahiriddin Muhammad Bobur in "Boburnoma"*Central Asian journal of theoretical and applied sciences Volume: 03 Issue: 06 Jun 2022 ISSN: 2660-5317.*
9. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fani taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari. *ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES*,3, 710-719. (2023)
10. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fanini o‘qitishda inovatsialar. *ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES*,3, 734-745 (2023).
11. Sattorov V.N (2022). Methods of shaping the culture of the teacher. *Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning. vol 3 no.02. 36-41 (2022). ISSN (online): 2776-0995*
12. Sattorov V.N (2023). Indicators of Pedagogical Competence and its Effectiveness. *International Journal of Inclusive and Sustainable Education. vol 2 no.02. 86-88. (2023). ISSN(e): 2833-5414*
13. Arapbaeva Damegul Kurbanovna, Amirova Bibisara Aubakirovna. Personal Psychological Adaptation and its Characteristics. *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. VOL. 2. NO 2. 2023. -P. 68-70.*